

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11515994>

YER USTI SUV KADASTRI OBYEKTLARINING IDENTIFIKATSIYA (KADASTR) RAQAMINI SHAKLLANTIRISH VA BERISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimov Lazizbek Toshpulat o‘g‘li

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
katta o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston

Yarkulov Zokir Raxmanovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
katta o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston

Ortiqov Javlon Ulugmurod o‘g‘li

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada yer usti suv kadastr obyektlarining identifikatsiya (kadastr) raqamini ular joylashgan xududlar bo‘yicha shakllantirish va berish tartibini xududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish tizimi hamda irrigatsiya tizimlarida suv havzasining tegishli gidrografik va gidrogeologik rayonlashishida qo‘llaniladigan suv obyekti nomi va raqamlari(kodlari) asosida takomillashtirish ishlari haqida bayon qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Suv, uchastka, xudud, ma’lumot, geofazoviy, tizim, miqdor, axbopot, texnologiya, monitoring, tasnif, ma’lumotlar bazasi, kadastr raqam, atributiv, gidrogeologik, xatlov, kanal, daryo, xavza, qirg‘oq, inshoot.*

Kirish: Suv resurslaridan xududlar miqyosida foydalanish samaradorligini baholash mezonlari va me‘yorlari hamda kadastr obyekti sifatida ularning xatlovini o‘tkazish, xar bir sug‘orish tizimi obyektlarini muhofaza qilish va sanitariya-ximoya xududlarini joyda belgilash hamda kadastr raqamini shakllantirish, berish va ularni suv kadastr xaritalarida ifodalash, suv resurslarning hisobotini faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritish davlatning eng muhim vazifalaridandir [1;2; 3;4].

Davlat suv kadastrı yagona davlat suv fondini tashkil etuvchi suv obektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati va undan foydalanish haqidagi, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar to'g'risidagi tartibga solingan, doimiy to'ldirib boriladigan va zarurat bo'lganda aniqlashtiriladigan ma'lumotlar to'plamini ifodalaydi [1; 4; 5].

Suv obyektlari turlariga hamda suvni va undan foydalanishni o'rganish bo'yicha vazifalar taqsimotiga muvofiq yer usti va yer osti suv obyektlari va ularning resurslari Davlat suv kadastrining obyektlari xisoblanadi va suv va suv xo'jaligi obyektlarining quyidagi turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [1;4]:

➤ **Suv obyektlari:**

- Daryolar;
- turli suv tizimlarini birlashtiruvchi, oqar suvni hududiy qayta taqsimlashga yoki sug'orishga xizmat qiluvchi kanallar;
- ko'llar va suv omborlari;
- muzliklar;
- yer osti suvlari (havzalar, suvli gorizontlar, konlar).

Suvdan foydalanuvchilarni suv resurslari va ulardan foydalanish to'g'risidagi zarur ma'lumotlar bilan ta'minlashda tezkorlikni oshirish, ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish darajasini oshirish uchun suv kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi tashkil etiladi [1; 3; 4].

Suv kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga suv kadastrı obyektlari bo'yicha ularning geofazoviy ma'lumotlarini ular joylashgan xududlarning raqamli xaritalarida tasvirlashda identifikasiya (kadastr) raqamlari muxim rol o'ynaydi [4; 5; 6;7].

Suv kadastrı obyektining identifikasiya (kadastr) raqami suv kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi xududning raqamli xaritasida tasvirlangan suv kadastrı obyekti joylashgan yer uchastkasining chegarasini va matn ko'rinishidagi geofazoviy ma'lumotlarini qidirib topish hamda idoraviy quyi tizimlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash imkonini yaratadi [3; 5; 6].. Bu ma'lumotlar, xar bir xudud bo'yicha suv kadastrı obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, suv resurslarining rejimi, foydalanishi, shuningdek suvdan foydalanuvchilar to'g'risidagi miqdor, sifat va qiymat ko'rsatkichlari haqida ishonchli, zamonaviy va tezkor axborotlarni olish, tartibga solish, saqlash va ularni foydalanuvchilarga taqdim etish jarayonlarini takomillashtirish zarurligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va uslublari. Tadqiqotning obyekti sifatida yer usti suv obyekti xisoblanadigan Samarqand viloyati Zarafshon irrigasiya tizimlari xavza boshqarmasi xisobidagi Darg‘om kanali va uning o‘ng-chap qirg‘og‘idagi kanallar tizimi asos qilib olindi.


Tadqiqotning predmeti bo‘lib Samarqand viloyati Zarafshon irrigasiya tizimlari xavza boshqarmasi xisobidagi Darg‘om kanali va uning o‘ng-chap qirg‘og‘idagi kanallar tizimining identifikasiya (kadastr) raqamlarini ular joylashgan xududlar bo‘yicha shakllantirish va berish tartibini takomillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, dala xatlovi, guruhlash, tizimlashtirish, natijalar ishonchliligini kompyuter dasturlarida kayta tekshirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va muhokamasi.

Kadastr bo‘yicha bo‘lish va kadastr rakami berish tizimi ko‘chmas mulkni xisobga olishning yagona tizimida xar kandy ko‘chmas mulk obyektlarini ular joylashgan kadastr birliklari bo‘yicha bo‘lish: mintaqalar, tumanlar va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar, kadastr zonalari, kadastr massivlari, kadastr mavzelari, yer uchastkalari darajasida bir xilda identifikasiyalashni ta’minlashi kerak [4; 5;].

Suv kadastr obyektlari bir va bir nechta ma’muriy xududlarda joylashishi (1-rasm) va ularga berilayotgan kadastr raqami (Darg‘om kanalining kadastr raqami 14:) butun yer usti suv obyektiga berilgan identifikasiya (kadastr) raqami hisoblanib, quyidagi masalalarni yechish imkoniyatini bermaydi:



1-rasm. Darg'om kanali va uning o'ng- chap qirg'oq kanallar tizimi

Birinchiidan, suv kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi xududning raqamli xaritasida tasvirlangan yer usti suv kadastr obyekti joylashgan yer uchastkasining chegarasini va matn ko‘rinishidagi geofazoviy ma‘lumotlarini aloxida ma‘muriy xududlar (Masalan, Urgut yoki Pstdarg‘om tumani) bo‘yicha ajratib berish;

Ikkinchiidan, yer usti suv kadastr obyekti joylashgan xudud bo‘yicha suvdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi miqdor, sifat va qiymat ko‘rsatkichlari asosida hisobotlar shakllantirish;

Uchinchiidan, yer usti suv kadastr obyekti joylashgan xududning geoportalini yaratish;

To‘rtinchiidan, irrigasiya tizimlari xavza boshqarmasi va tuman(shaxar) bo‘limlarining xududdagi yer usti suv kadastr obyektlarining geofazoviy, statistik va boshqa ma‘lumotlaridan tezkor foydalanish.

Yer usti suv kadastr obyektlari bir va bir nechta ma‘muriy xududlarda joylashishini (1-rasm) inobatga olgan xolda identifikasiya (kadastr) raqamlarini shakllantirishda va berishda suv kadastr obyekti

joylashgan yer uchastkasining kadastr raqami va ularning joylashuvi (1-shakl) asosida quyidagi ketma ketlikda takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Xududlar va irrigasiya tizimlarida suv havzasining tegishli gidrografik va gidrogeologik rayonlashishida qo‘llaniladigan suv obyekti nomlari (2-shakl) asosida kadastr birliklari bo‘yicha bo‘lish tizimi [5; 8];


- kadastr birliklari bo‘yicha bo‘lish tizimi va irrigasiya tizimlarida suv havzasining tegishli gidrografik va gidrogeologik rayonlashishida qo‘llaniladigan suv obyekti raqamlari(kodlari) [4; 5;] asosida (3-shakl).

Er usti suv kadastr obyektlarining kadastr raqami quyidagi tuzilmaga ega bo‘ladi:

➤ **AA : VV : VV : S : D : G : YYYYYYYY: HH: KK** bunda:

Darg‘om kanalining o‘ng va chap qirg‘oq chiquvchi kanallarining joylashuv sxemasi

1-shakl



Er usti suv kadastr obyektlarini kadastr birliklari bo'yicha bo'lish tizimi

2-shakl

Er usti suv kadastr obyektlariga identifikasiya (kadastr) raqamlarini shakllantirish va berish

3-shakl

Ma'muriy mintaqa raqami	AA
Ma'muriy mintaqadagi xududiy tuzilma raqami	BB
DKYaTdagi Davlat suv kadastrining shartli raqami	VV
Davlat suv kadastr tematik qatlamining shartli raqami	S
Gidrografik hududning shartli raqami (asosiy daryoning havzasi)	D
Asosiy daryo havzasi bo'yicha gidrogeologik hududning shartli raqami	G
Idoraviy ro'yxat bo'yicha yer usti suv kadastr obyektlarining seriya raqami	YYYYYYYY
Yer usti suv kadastr obyektlarining ma'muriy-xududiy tuzilma xududidagi raqami	HH
Yer usti suv kadastr obyektlarining o'ng yoki chap qirg'oq chiquvchi kanalining shartli raqami	KK

Kadastr birliklari	Identifikatsiya kodi	Kadastr raqami
Mamuriy mintaqa raqami	AA	Samarqand viloyati – 14 Qashqadaryo viloyati – 18
Mamuriy mintaqadagi xududiy tuzilma raqami	BB	Urgut tumani – 14 Chiroqchi tumani-14
DKYaTdagi Davlat suv kadastrining shartli raqami	VV	Davlat suv kadastrini - 03
Davlat suv kadastrini tematik qatlamining shartli raqami	S	“Yer usti suvlari” -1
Gidrografik hududning shartli raqami (asosiy daryoning havzasi)	D	Sirdaryo daryo havzasi-1 Amudaryo daryo havzasi-2 Drenajsiz suv havzasi-3
Asosiy daryo havzasi bo'yicha gidrogeologik hududning shartli raqami	G	Zarafshon -1 Qashqadaryo-2
Idoraviy ro'yxat bo'yicha yer usti suv kadastrini obyektining seriya raqami	YYYYYYYY	“Yer usti suvlari” (Daryo va markaziy kanallar bo'yicha): Darg'om kanali 31100078
Xududiy tuzilmadagi yer usti suv kadastrini obyektining kadastr raqami	HH	Darg'om kanalining Urgut tumanidagi kadastr raqami: 14:14:03:01:2:1:31100078 Darg'om kanalining Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi kadastr raqami: 18:14:03:1:2:1:31100078:04
Davlat suv kadastrini obektining: -chap qirg'oq chiquvchi kanalining shartli raqami - o'ng qirg'oq chiquvchi kanalining shartli raqami	KK	➤ Darg'om markaziy kanalidan chiquvchi chap qirg'oq Aylanma Darg'om oraliq kanalining Urgut tumani xududidagi kadastr raqami: 14:14:03:01:2:1:31100078:01 ➤ Darg'om markaziy kanalidan chiquvchi o'ng qirg'oq Yangi Darg'om oraliq kanalining Urgut tumani xududidagi kadastr raqami: 14:14:03:01:2:1:31100078:02


- **AA-** Mintaqaning raqami(kodi)ni bildiruvchi ikki razryadli o'nli son;

- **VV-** Mintaqa tarkibidagi ma'muriy-hududiy tuzilma (ma'muriy tuman, viloyat bo'ysunishidagi raqami(kodi)ni bildiruvchi ikki razryadli o'nli son;
- **VV-DKYaTdagi** Davlat suv kadastrining shartli raqami(kodi)ni bildiruvchi ikki razryadli o'nli son;
- **S-** Davlat suv kadastrini tematik qatlamining shartli raqami(kodi)ni bildiruvchi bir razryadli o'nli son;
- **D-** Hidrografik hududning shartli (asosiy daryoning havzasi) raqami(kodi) ni bildiruvchi bir razryadli o'nli son;
- **G-** Asosiy daryo havzasi bo'yicha gidrogeologik hududning shartli raqami (kodi)ni bildiruvchi bir razryadli o'nli son;
- **YYYYYYYY-** Idoraviy ro'yxat bo'yicha yer usti suv kadastrini obyektining seriya raqami(kodi)ni bildiruvchi sakkiz razryadli o'nli son;
- **NN-** Xududiy tuzilmadagi yer usti suv kadastrini obyektining kadastr raqami(kodi)ni bildiruvchi ikki razryadli o'nli son;
- **KK-** Davlat suv kadastrini obyektining chap(toq sonli) va o'ng(juft sonli) qirg'oq chiquvchi kanalining shartli raqami(kodi)ni bildiruvchi ikki razryadli o'nli son;

Xar bir suv kadastrini obyektlariga ular joylashgan hudud bo'yicha bitta identifikatsiya (kadastr) raqami beriladi va yozuvlar davlat reyestr kitobida ro'yxatdan o'tkaziladi (2-rasm).

Xulosa: Xar bir suv kadastrini obyektiga joylashgan hudud bo'yicha identifikatsiya (kadastr) raqamining berilishi mazkur suv obyektini bo'yicha quyidagi masalalarni yechish imkoniyatlari yaratiladi:

- Xar bir suv kadastrini obyektini bo'yicha joylashgan yer uchastkasining chegarasini va matn ko'rinishidagi geofazoviy ma'lumotlarini aloxida ma'muriy xududlar bo'yicha ajratib olish;
- suv kadastrini obyektini joylashgan xudud bo'yicha suvdan foydalanuvchilar



2-rasm. Darg'om kanalining Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi kadastr raqamining berilishi va davlat reyestr kitobida ro'yxatdan o'tkazilishi

to'g'risidagi miqdor, sifat va qiymat ko'rsatkichlari asosida hisobotlarni shakllantirish va hudud bo'yicha umumlashtirish hamda Milliy geografik axborot tizimiga taqdim etish;

- irrigasiya tizimlari xavza boshqarmasi va tuman(shaxar) bo'limlarining xududdagi yer usti suv kadastr objektlarining geofazoviy, statistik va boshqa ma'lumotlaridan tezkor foydalanish, nazoratini tashkil qilish va tegishli tashkilotlarga integratsiyasini ta'minlash;
- suv kadastr objekti joylashgan xududning suv kadastr geoportalini yaratish va integratsiya qilish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydagi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi [Qonuni](#) (2021 yil 30 noyabrdagi O‘RQ-733-sonli [Qonuni](#) tahriri)
2. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda “[Davlat kadastrlari to‘g‘risida](#)»gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 26 dekabrda “Fazoviy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni.
4. Abdurakhmonovich, A. G., Rakhmanovich, Y. Z., & Abdiazizovich, R. B. (2021). FORMATION OF THEMATIC STRUCTURES OF SMALL AREA FACILITIES DEVELOPING DANGEROUS HYDROMETEOROLOGICAL EVENTS ZONES OF HIGH NATURAL RISK. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 150-154.
5. Haydarovich, B. M., Yarkulov, Z. R., & Mashrab, P. (2023). Main Characteristics of Geoinformation Technologies and Modern Gis. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 194-200.
6. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTлари DAVLAT KADASTRI BO‘YICHA TEMATIK QATLAMLARINING ATRIBUTIV MA’LUMOTLARINI YARATISH. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 8-12).
7. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). CREATION OF ATTRIBUTIVE DATA OF THEMATIC STRUCTURES OF THE STATE CADASTRE OF MATERIAL CULTURAL HERITAGE OBJECTS. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 1-5).
8. Раимов, У. А., & Тухтаев, Ш. Х. (2021, October). Геодезический Мониторинг Деформаций Ансамбля Регистан. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 96-100).
9. Raximov, U. A., Tojidinova, F. M., & Po‘latov, S. S. (2023). ISSUES OF FORMATION OF STATE CADASTRE DATA OF HIGHWAYS USING GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEM. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 156-160.
10. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., Ilmurodova, L. A., & Tadjidinova, F. M. (2023). SAMARQAND VILOYATINI MADANIY ME’ROS OBYEKTлари XARITALARINI GAT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB YARATISH MASALALARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(8), 255-257.
11. Рахимов, У. А., & Хамдамов, М. С. (2023). ГЕОПОРТАЛ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО КАДАСТРА И ИХ ИНТЕГРАЦИЯ МЕЖДУ АГЕНТСТВАМИ. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 32-36.
12. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., & O‘rozaliyev, B. B. (2023). Existing Class I Height in the Area of Samarkand Current Status of Points. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 205-208.

13. Ibragimov, L. T., Raximov, U. A., Yarkulov, Z. R., & Ortiqov, J. U. (2022). Improvement of the State Water Cadastre's Management System. *INTERNATIONAL JOURNAL ON HUMAN COMPUTING STUDIES*.
14. Рахимов, У. А., Тожидинова, Ф. М., & Рахимов, Б. А. (2023). СПУТНИКОВЫЙ МОНИТОРИНГ ДЛЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ КАДАСТРОВЫХ РАБОТ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(28), 97-104.
15. Gulmurodov, F. E., Raximov, U. A., Umirzakov, Z. T., & Jo'rayev, S. X. (2023). O 'ZBEKISTONDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH VA QAYTA TIKLASHDA 3D TECHNOLOGIYASINING ANAMIYATI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 500-506.
16. Гулмуродов, Ф. Э., & Рахимов, У. А. (2023). РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Scientific Impulse*, 1(9), 1190-1195.
17. Тожидинова, Ф. М., Бобокалонов, М. Х., & Рахимов, У. А. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ ДАННЫХ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЕ ЗЕМЛИ В ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИЕ И УПРАВЛЕНИИ РАБОТ В КАРТОГРАФИИ. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(29), 427-436.
18. Рахимов, У. А. (2023). МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН СХЕМАТИК ХАРИТАЛАРИ ВА АТРИБУТЛАРИНИ ЯРАТИШ МЕТОДИКАСИ. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TECHNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(5), 132-136.
19. Ниязов, В. Р., Рахимов, У. А., & Хайруллаева, М. (2023). ПРОЕКТИРОВАНИЕ ГЕОДЕЗИЧЕСКОЙ СЕТИ СГУЩЕНИЯ В ОКРЕСТНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОБЪЕКТОВ. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(5), 627-634.
20. Ниязов, В. Р., Рахимов, У. А., & Хайруллаева, М. (2023). «МУРУНТОВ» ОЧИҚ КАРЬЕРИ АТРОФИДАГИ ГЕОДЕЗИК ТАРМОҚНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ. *Scientific Impulse*, 1(10), 1166-1173.
21. Рахимов, У. А., Яркулов, З. Р., ўғли Ортиқов, Ж. У., & ўғли Нурфайзиев, Э. З. (2023). САМАРҚАНД ШАҲРИДАГИ МОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИ ЖОЙЛАШГАН ЎРНИНИ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ АНИҚЛАШ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(10), 117-125.
22. Jurakulov Doniyor Ochilovich, & Yarkulov Zokir Rahmanovich. (2023). Aholi punkti hududidagi yer resurslarining hisobi(balansi)ni yuritishni raqamlashtirish. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(4), 4–18. [HTTPS://DOI.ORG/10.5281/ZENODO.7811591](https://doi.org/10.5281/ZENODO.7811591).
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.02.2005 yildagi 66-son qaroriga muvofiq "Davlat suv kadastrı obyektlarining vaqtinchalik yagona klassifikatori va identifikatori" 24.08.2015 yildagi 66-sonli majlis bayoni.